

**ONKOLOGIK KASALLIKLARNING DOLZARB MUAMMOLARI VA
YANGILIKLARI**

Muhammadjonov Sarvarbek G`ayratjon o`g`li

FJSTI, Biotibbiyot muhandisligi 2-kurs 1622-guruh talabasi

Ubaydullayeva Maxsuma Eldorbek qizi

FJSTI, Tibbiy profilaktika ishi 1-kurs 1123-guruh talabasi

Xolmadjonova Muntazir Jahongirovna

FJSTI, Tibbiy profilaktika ishi 1-kurs 1123-guruh talabsi

Olimjonova Dilzoda Qaxramonjon qizi

FJSTI, Tibbiy profilaktika ishi 1-kurs 1123-guruh talabsi

Annotatsiya: Bugungi kunda onkologik kasalliklar butun dunyo bo'yicha kuzatilmoqda. Onkologik kasallik rivojlanishini barvaqt aniqlash, davolashning samarali usullarini qo'llash kasallik bilan kurashishning mazmunini tashkil qiladi. Saraton tashxisi qo'yilgan bemorni davolashda nafaqat tibbiy choratadbirlarni qo'llanilishi, balki bemor psixologiyasini ham inobatga olish muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu maqolada onkologik kasalliklarning hozirgi kunda kuzatilayotgan dolzarb muammolari va yangiliklari keltirib o'tilgan Saraton rivojlangan dunyoda eng halokatli kasallik ekanligi aniq, chunki har uchinchi odam hayoti davomida saraton kasalligiga chalinadi. Saraton kasalligini davolash Muqaddas Grailga o'xshaydi, chunki mavjud davolash usullarining aksariyati bu kasallikdan to'liq himoya qilish uchun etarli darajada samarali emas. So'nggi yillarda murakkab genomik, proteomik va bioinformatika usullarining rivojlanishi bizga saraton fenotiplarining namoyon bo'lishi uchun mas'ul bo'lgan ko'plab hujayra genlari va tartibga soluvchi genetik elementlarning murakkab o'zaro ta'sirini ko'rish imkonini berdi. Zamonaviy genomik texnologiyalarni qo'llash bilan biz saratonning ulkan murakkabligini tushuna boshlaymiz.

Kalit so'zlar: DNK, Saraton Kasalligi, Onkologiya ,kanserogen modda, gormonal status, aviakerosin, ekologik.

Kirish: Onkologiya — tibbiyotning yuqori texnologik bo'limidir. Tashxidan tortib to reabilitatsiya qilishgacha bo'lgan tibbiyotni tashkillashtirish bosqichlari logistikasi qancha yuqori bo'lsa, bemorni tiklanib ketishga bo'lgan imkoniyati shunchalik yuqori bo'ladi. Saraton bilan kasallangan bemorlar uchun yuqori darajadagi tibbiy yordam ko'rsatadigan mamlakatlar ham mavjud (Germaniya, Shveysariya, Isroil, Amerika Qo'shma Shtatlari). So'nggi yillarda Rossiya yuqori texnologiyali markazlarni yaratib, muayyan ijobiy qadamlar qo'ydi. O'zbekistonda ham ulkan imkoniyatlar yaratildi. Hozirda rak kasalligi davosi o'rganilmoqda. Agar erta yoki kech

bosqichda tashxislanishiga keladigan bo'lsak, yuqorida aytib o'tilganlardan tashqari, dastlabki bosqichlarda tiklanish istiqbollari ancha yuqori. Saraton degan so'zning o'ziyoq kishini dahshatga soladi. Ammo tirik jon borki dardga chalinadi, shifo izlaydi. Onkologik kasalliklar tibbiyotning eng murakkab muammolaridan biri hisoblanadi va asrlar osha ularni yengish uchun tadqiqotlar o'tkazilib kelinmoqda. Onkologik kasallik va uni davolashning psixologik oqibatlarini butun dunyoda muhim ilmiy tadqiqot yo'nalishlari sifatida olib borilmoqda. Ushbu kasalliklarni keltirib chiqaradigan sabablari turlicha bo'lishi mumkin. Onkologik kasalliklarni turli xil kimyoviy kanserogenlar, biologik omillar xususan viruslar keltirib chiqarishi mumkin. Ularning barchasi dastlab DNK tuzilishi patologiyasiga olib keladi, natijada onkogen hujayralar faollanadi. Buning natijasida hujayralar nobud bo'lmasdan juda ko'p miqdorda ko'payadi va havfli o'smanikeltirib chiqaradi. Onkologik kasalliklar bilan yoshlar, ayollar, erkaklar, qariyalar birdek og'rinoqdalar. Butunjahon sog'liqni saqlash tashkilotining ma'lumotlariga ko'ra, onkologik kasalliklardan vafot etganlar soni yildan yilga ortib bormoqda. Statistik ma'lumotlarga qaraganda 95% hollarda saraton atrof-muhitning va yashash tarzining yomonligidan kelib chiqayotganigini qayd etilmoqda. Afsuski hali onkologik kasalliklarning to'laqonli da'vosi topilmagan. Shuni ta'kidlash joizki, eng yuqori foizlarda noto'g'ri ovqatlanish 4 rejimida yashamayotganligimiz, ayniqsa tez tayyor bo'ladigan fast fudlarni iste'mol qilayotganligimiz ham o'sma kasalliklarini rivojlanishiga olib kelmoqda.

O'zbekistonda ham o'sma kasalliklarini davolash nafaqat sog'liqni saqlash tizimining, balki butun jamiyatning doimiy e'tiborini talab qiladigan soha ekanligi ma'lum. Bunday kasalliklarga chalingan bemorlar, ayniqsa bolalar har bir shifokorga, hamma davolash uslublariga najot sifatida qarashadi. Chindan ham rak kasalliklarini aniqlash soni jihatdan ko'payyapti. Ammo buning obektiv sabablari bor. Kanserogen moddalar ko'paymoqda, ekologik muammolar bor. Birgina samolyot ko'tarilayotganda yoki qo'ndayotganda 2 tonna atrofida aviakerosin yoqadi, avtomobillar soni kundan-kunga oshyapti. Bularning hammasi aholi yashovchi hududlarda kanserogen moddalar tarqalishiga sabab bo'ladi. Albatta, bu sabablar tufayli avtomobillardan yoki samolyotlardan voz kechib bo'lmaydi, lekin sog'lom turmush tarzini ham unutmash kerak. Onkologiya shifoxonalariga keluvchilar shifokorlar qabulida, nur beruvchi uskunalarda navbatlar ko'pligidan shikoyat qilishadi. – Nur terapiyasi bo'yicha bundan 5 yil avvalgi holat 5 donagina uskuna ishlardi. O'zi har 300 ming aholiga bitta uskuna bo'lishi kerak, O'zbekistonda 36 mlnga yaqin aholi bor, ularga shu buzilishga ulgurmagan 5 dona nur beruvchi apparat ishlar edi. Davlat rahbari Shavkat Mirziyoyev Prezident bo'lib saylanishi bilan onkologiya muammolari bo'yicha qator qarorlar qabul qildi va 20 ta nur beruvchi uskunalar xarid qilib berildi. Ular poytaxtga ham, viloyatlarga ham o'rnatilib ishga tushirildi va tushirilmoqda. Hozir nur berish bo'yicha navbatlar yo'q. – Bemorlarning

yana bir e'tirozi murakkab operatsiyalar o'zimizda qilinmasligi, albatta, xorijga chiqish zarurligi bo'yicha. – Bundan 20 yil oldin juda ko'p operatsiyalar qilinmasdi, o'lim ko'rsatkichlari yuqori edi. Bugun hammasi boshqacha, onkologik shifoxonalarda faoliyat yurutayotgan shifokorlarimiz bir qancha chet davlatlardagi shifokorlar bilan tajriba almashib, o'z malakalarini oshirib kelmoqdalar. Hozirgi kunga chet ellardan kelgan shifokorlar o'tkazilayotgan operatsiyalarimizga yuqori baho berishmoqda. – Yana bir e'tiborli jihat – dorilar ta'minoti. 5 – Bu vaziyat so'ngi yillarda yaxshilangan. Yuqorida aytganimday kimyo terapiyasi bo'yicha vositalar ta'minoti 15 foizdan oshmasdi, hozir to'liq ta'minlanmoqda. Pandemiya tufayli karantin paytida kimyo terapiya vositalar ta'minoti uzilishlar bo'ldi. Tenderlar vaqtida o'tkazilmadi, zavodlarga buyurtmalar kechikib berildi. Lekin bular ham bartaraf qilinmoqda. Ayollarda uchraydigan onkologik kasalliklarning kelib chiqish sabablari, davolash va oldini olish ishlari olib borilmoqda. Ayollarda uchraydigan onkologik kasalliklar juda jiddiy muammo hisoblanadi. Bu kasalliklarning oldini olish uchun ayollarimizga bir yilda bir marta tibbiy ko'rikdan o'tish tavsiya qilinadi. Barchamizga ma'lumki onkologik kasalliklar hech qanday simptomlarsiz, birorta belgilersiz vujudga keladi. Oqibatda ularni aniqlash imkoni judayam qiyinlashadi. Kasallik qancha kech aniqlansa, kasallik darajalariga qarab ularni davolash imkoniyati ham ancha pasayadi. Onkologik kasalliklar qancha tez tashxis qo'yilib, erta aniqlansa ularga qarshi kurashish shuncha osonlashadi. Bugungi kunda dunyoda ko'krak bezi saratonidan keyingi o'rinda bachadon bo'yni va bachadon tanasi raki judayam ko'p uchraydi. Ko'p hollarda ayollar kechikib murojaat qilishadi. Buning sababi ham bor. Kasallik belgilersiz rivojlanadi. Bir yilda bir marta ayollarni ginekolog ko'rikdan, tekshirishdan o'tish kasallikni erta aniqlashda yordam beradi. Bu tekshiruvlarning samarali jihati shundaki, hujayralardagi eng kichik o'zgarishlargacha oldindan aniqlab, vaqtliroq muolajalarni olib borish orqali ayollarda hech qanday asoratlar qoldirmasdan, bu kasallikni qaytalanishining oldini olish imkonini beradi. Kasalliklarning kelib chiqish sabablari bo'yicha nazariyalar judayam keng qamrovli bo'lib, aniq bir sababni keltirish qiyin. Gormonal statusning o'zgarishi, stress holati, ortiqcha vazn va moddalar almashinuvi buzilishlari onkologik kasalliklarning vujudga kelishiga olib kelishi mumkin. Bundan tashqari nasliy omillar, tashqi muhitning o'zgarishi, ekologik holat hamda ko'pgina yuqumli kasalliklar ham kasallik rivojlanishiga ta'siri bor degan nazariyalar mavjud. Bugungi kunda O'zbekistonda onkologik kasalliklarni oldini olish bo'yicha katta dasturlar amalga oshirilmoqda. Kasallikni erta aniqlash uchun ayollardan bir yilda bir marta tibbiy ko'rikdan o'tib turishlari kerak. Chunki onkologik 6 kasalliklarni davolash judayam qiyin hamda katta mablag' talab qilinadi. Shuningdek, samara olish uzoqqa cho'zilib, oqibatda ayanchli holatlarga olib kelishi mumkin. Asosiysi onkologik kasalliklarni oldini olishda birinchi qilinadigan ish bu profilaktik ko'riklarni amalga oshirishdir. Sababi onkologik kasalliklar bugungi kunda

yosharib bormoqda. Shu sababli ayollarimizga sog‘liqlariga bee'tibor bo‘lmasliklari kerak.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Aliyev N., Muhammadjonov S. THE ROLE OF MATHEMATICS EDUCATION IN THE PROFESSIONAL TRAINING OF MEDICAL WORKERS. THE IMPORTANCE OF MATHEMATICS FOR A HEALTH WORKER. MATHEMATICAL METHODS AND STATISTICS IN MEDICINE //Бюллетень педагогов нового Узбекистана. – 2023. – Т. 1. – №. 2. – С. 39-42.
2. Nurillo N. A., Muhammadjonov S., Tojimatova L. THE ROLE OF MATHEMATICS EDUCATION IN THE PROFESSIONAL TRAINING OF MEDICAL PERSONNEL. THE IMPORTANCE OF MATHEMATICS FOR THE HEALTH WORKER //International Bulletin of Medical Sciences and Clinical Research. – 2023. – Т. 3. – №. 6. – С. 54-56.
3. Melibayeva, F. M., Aliyev, N. A., & Muhammadjonov, S. G. o‘g‘li. (2023). CHEKISH BILAN BOG‘LIQ O‘PKA KASALIKLARI. Educational Research in Universal Sciences, 2(16), 719–723
4. AN Abdiqayumovich, M Sarvarbek Gayratjon o'gli. ZAMONAVIY DIAGNOSTIKANING ROLI. ZAMONAVIY DIAGNOSTIKA USULLARI. Лучшие интеллектуальные исследования 10 (6), 177-180.
5. Ravshanbekovna, M. N., Sarvarbek Gayratjon og, M., & Alijon o‘g‘li, T. A. (2024, January). AYRISH SISTEMASIDAGI BUYRAKNING AHAMIYATI. In *INTERDISCIPLINE INNOVATION AND SCIENTIFIC RESEARCH CONFERENCE* (Vol. 2, No. 16, pp. 11-14).
6. Erkinjon o‘g‘li, M. X. BEMORLARNI TEKSHIRISHDA DIAGNOSTIK AXAMIYAT.
7. Madraximova, N. R. (2024). O ‘PKA KASALLIKLARNI ANIQLASHDA ZAMONAVIY DIAGNOSTIK USULLAR. *Educational Research in Universal Sciences*, 3(4 SPECIAL), 36-38.
8. Yusubjanovna, Akbarova Munojatxon. "BIRINCHI TIBBIY YORDAMNING AHAMIYATI VA UNI BAJARISHNING UMUMIY QOIDAIARI." *PRINCIPAL ISSUES OF SCIENTIFIC RESEARCH AND MODERN EDUCATION* 2.1 (2023).
1. Yusubjanovna A. M. AVTOMATIK BOSHQARISH TIZIMLARI VA TEXNIK VOSITALARINING PUXTALIGI //PRINCIPAL ISSUES OF SCIENTIFIC RESEARCH AND MODERN EDUCATION. – 2023. – Т. 2. – №. 1.
9. Axbarova Munojatxon, Komilova Asalxon Ne‘mat qizi, & Burxonova Orzuxon Asrorjon qizi. (2022). TIBBIYOTDA NANOELEKTROTEXNIKANING QO‘LALLANILISHI. *Conferencea*, 5–6.

10. Yusubjanovna, A. M. "Iqbol o'g'li, QM, & Adhamjon o'g'li, EA (2023)." *SUYUQ KRISTALLAR VA ULARNING RENTGEN DIAGNOSTIKASI. PRINCIPAL ISSUES OF SCIENTIFIC RESEARCH AND MODERN EDUCATION* 2.6.
11. Akbarova, Munojatxon Yusupjanovna. "'HAYOT FAOLIYATI XAVFSIZLIGI' FANINI O'QITISHDA GRAFIK ORGANAYZERLARNI QO'LLASH TARTIBI." *SO'NGI ILMIY TADQIQOTLAR NAZARIYASI* 6.12 (2023): 366-371.
12. Akbarova, Y. M. "TIBBIY TA'LIM YO'NALISHI TALABALARIGA 'HAYOT FAOLIYATI XAVFSIZLIGI' FANINI O'QITISHDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNING O'RNINI." *FAN JURNALI TA'LIM VA MADANIYAT* 1.1 (2023): 26-31.
13. Yusubjanovna, Akbarova Munojatxon, Qodirov Miraziz Iqbol o'g'li, and Eshmurodov Asadjon Adhamjon o'g'li. "SUYUQ KRISTALLAR VA ULARNING RENTGEN DIAGNOSTIKASI." *PRINCIPAL ISSUES OF SCIENTIFIC RESEARCH AND MODERN EDUCATION* 2.6 (2023).
14. Abdusubxon o'g'li, Usmonov Saidjon, and Akbarova Munojatxon Yusubjanovna. "YARIMO 'TKAZGICH MONOKRISTALINI O'QITISH." *E Conference Zone*. 2022.
15. Abdusubxon o'g'li U. S., Yusubjanovna A. M. YARIMO 'TKAZGICH MONOKRISTALINI O'QITISH //E Conference Zone. – 2022. – С. 33-34.
16. Хоменко Е. Д. и др. МЕЖДУНАРОДНАЯ НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКАЯ КОНФЕРЕНЦИЯ «ИННОВАЦИОННЫЕ ПОДХОДЫ В СОВРЕМЕННОЙ НАУКЕ